



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLATDA VA FUQAROLIK JAMIYATIDA KONSTITUTSIYANING O'RNI VA AHAMIYATI

Toshpo`latov Kamronbek Abdulaziz o`g`li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs talabasi

e-mail: kamronbektoshpolatov008@gmail.com

ANNOTATSIYA; *Ushbu maqolada huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida Konstitutsiyaning tutgan o`rni va ahamiyati har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqotda Konstitutsiyaning jamiyat hayotidagi normativ, siyosiy va ijtimoiy vazifalari yoritilib, uning davlat hokimiyati bilan fuqarolar o`rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy mexanizm sifatidagi roli ochib beriladi. Shuningdek, Konstitutsiyaning inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash, qonun ustuvorligini ta`minlash, davlat organlari faoliyatini huquqiy asosda yo`lga qo`yishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslanadi. Maqolada Konstitutsiya fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga huquqiy zamin yaratishi hamda demokratik boshqaruv tizimini mustahkamlashdagi strategik vosita ekanligi xulosalanadi.*

**Kalit so`zlar:** *Konstitutsiya, huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, qonun ustuvorligi, shaxs huquqlari, davlat va jamiyat munosabatlari, huquqiy kafolat, hokimiyat va fuqaro o`rtasidagi ishonch.*

KIRISH

Hech birimizga sir emaski, bugungi kunda huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini yuksaltirish har bir davlatning asosiy va ajralmas maqsadi, muhim davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan. Ayniqsa, rivojlangan, mustaqil davlatlarning amalga oshirayotgan harakatlarida yaqqol namoyon bo`lmoqda. Har bir jabhada, har bir tashabbuslarda aynan ushbu ezgu maqsad sari shaxdam qadam bosilayotgani ko`rinib turibdi. Albatta, ushbu maqsadga erishishda har bir davlatning asosiy qonuni hisoblangan Konstitutsiyaning o`rni beqiyosdir. Chunki aynan ushbu oliy yuridik kuchga ega bo`lgan qonun tomonlar o`rtasidagi munosabatlarni halol, adolatli va oqilona tartibga solishda muhim ahamiyatga egadir. Sababi bunday maqsadga erishilganda, insonlar o`rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda, qolaversa, ular o`rtasida munosabatlarni amalga oshishida Konstitutsiya markaziy o`rinni egallaydi.

MUHOKAMA VA TAHLIL

Dunyo jadal rivojlanayotgan, globallashuv jarayonlari mamlakat hayotini tobora qamrab olayotgan bugungi sharoitda davlatlarning bosh qonuni hisoblangan Konstitutsiyaning o`rni dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlanish tobora ortib borgani sari, ayniqsa, mustaqil davlatlarda bunday qonunga talab oshmoqda. Bunga bir qancha sabablarni keltirib o`tish mumkin. Haqiqiy demokratik, insonlarning huquq va manfaatlari birinchi o`ringa qo`yilgan



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Konstitutsiyalarda asosan o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Chunki agar bunday masalalar birinchi o'ringa qo'yilmaganida, bugungi kunda Konstitutsiya o'z ahamiyatini yo'qotib, taraqqiyot orqaga ketib, tengsizlik holatlari yoki davlat hokimiyati organlari tomonidan oddiy fuqarolarga nisbatan salbiy qarashlar yuzaga kelishi mumkin edi. Lekin hozirgi vaqtda ko'pchilik davlatlarning asosiy maqsadi qilib, aynan huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini yuksaltirish qo'yilgan bir paytda Konstitutsiya o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Misol uchun, kishilar o'rtasidagi munosabatlar qonuniy hal qilinmoqda, har kimning huquq va erkinliklari asosiy qonunimiz sababli ta'minlanoqda va kafolatlanmoqda, davlat hokimiyati organlariga qonuniy tarzda vakolatlar berilmoqda va hokazo. O'zi umuman olib qaralganda, fuqarolik jamiyati komil insonlardan tashkil topgan, uzviy bog'liq bo'lgan, axloqiy, huquqiy madaniyatga ega bo'lgan insonlar guruhi hisoblanadi. Bunday fuqarolar o'z haq-huquqlarini bilishi va ularni boshqalarning huquq va manfaatlariga zarar yetkazmaydigan tarzda amalga oshiradilar. Aynan insonlar o'zlarining huquqlarini bilganlarida va majburiyatlariga rioya qilganlarida, bunday maqsadga erishish oson bo'ladi. Bu vaziyatda Konstitutsiyaning ahamiyati oliy o'ringa chiqadi. Sababi u orqali fuqarolar huquq va majburiyatlarini bilib olishadi, qanday holatlarda buzilishini tushunib, huquqbuzarlik qilmaslikka urinishadi. Fuqarolik jamiyatiga erishilganda, hamma o'ziga berilgan vazifalarini bajarib, huquqbuzarlik sodir qilmasdan harakat qilishadi. Natijada, har bir inson qilayotgan harakati o'z o'rnida bo'lsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ehtiyoj ham sezilmaydi. Chunki har bir harakat xuddi mexanizm kabi amalga oshadi. Oxir-oqibat insonlar o'rtasidagi aloqa, davlat va insonlar o'rtasidagi munosabatlar ijobiy tomonga o'zgarib, insoniyat sivilizatsiyasi cho'qqiga yetadi. Sababi kimlar o'rtasida munosabat yuzaga kelganligidan qat'iy nazar, huquqlarning ta'minlanishi va buzilmasligi birinchi o'ringa qo'yiladi. Hozirgi vaqtda bu maqsad sari siyosat yuritib, harakat qilayotgan davlatlar ko'pdir. Xususan, O'zbekiston Respublikasida ham o'z oldiga mana shunday ezgu maqsad qo'yilarkan, bu borada hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan qilinayotgan tashabbuslar, alohida e'tibor berilib, shu yo'lda shart-sharoitlar yaratilayotgani bunga yaqqol misoldir. Qolaversa, Oliy Majlis deputatlari tomonidan insonlarning manfaatlar uchun maqbul qonunlar qabul qilinayotgani va ijro tizimi davlat organlari va mansabdor shaxslarini emas, balki insonlar uchun xizmat qilayotgani bu maqsad yo'lida qilinayotgan shaxdam harakatlar desak adashmagan bo'lamiz. Ushbu yo'lda albatta, Konstitutsiyaning ahamiyati yuqoridir. Misol uchun, Konstitutsiyamizning 1-moddasiga ko'ra, davlatimizni huquqiy, demokratik davlat¹ deb hisoblashimiz ham buning isbotidir. Shuningdek, asosiy qonunimizning 13-moddasini ham alohida ta'kidlash zarurdir. Chunki ushbu moddaga ko'ra, mamlakatimizda demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi belgilangan. Bu tamoyil esa huquqiy demokratik davlat yaratishdagi shaxdam qadam qo'yilishi va insonlarga oliy qadriyat

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



sifatida yondashilganligidan dalolat beradi. Qolaversa, 54-modda ham muhim bir ma'no aks etgan, ya'ni davlatning oliy maqsadi insonlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish deb qayd etilgan. Bu esa bizning mamlakatimizda hokimiyatning qanchalik darajada Konstitutsiya orqali insonlarning manfaatlari yo'lida xizmat qilayotganligini ko'rsatadi. Bunda ham Konstitutsiyaning o'rnini alohida ahamiyatga ega, ham davlatimiz qo'ygan maqsadi yo'lida qilinayotgan harakatlardir. Konstitutsiyaning bu boradagi ahamiyatiga chet el huquqshunos olimlarining bir qancha muhim qarashlari ham mavjuddir. Jumladan, fransuz tarixchisi va davlat arbobi Fransua Gizo shunday deydi: “ Konstitutsiya – bu jamiyat va hukumat o'rtasidagi o'zaro ishonch aktidir”² deya ta'riflaydi. Ya'ni fuqarolik jamiyati davlatga o'z huquqlarining bir qismini ishonib topshiradi, davlat esa buni Konstitutsiya doirasida himoya qilishi shart deb hisoblaydi. Bunda har bir jarayon bir mexanizm kabi amalga oshadi. Bir tomon ikkinchi tomonga o'zaro huquq va majburiyatlar bilan bog'liq bo'ladi, ikkinchi tomon esa xuddi shunday birinchi tomonga bog'liq bo'lgan holda munosabatga kirishadi. Konstitutsiya esa ular o'rtasidagi qonuniy vosita bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, Britaniyalik huquqshunos Albert Venn Daysining ham muhim g'oyalar mavjud. Unga ko'ra, “ Konstitutsiya – bu shunchaki qonunlar to'plami emas, balki shaxsning sud orqali himoya qilinadigan huquqlari natijasidir”³ deya e'tirof etadi. Buning maqsadi shundan iboratki, huquqiy davlatda Konstitutsiya huquqlarni “ yaratmaydi”, balki xalqning mavjud huquqlarini “ muhrlaydi”. Bu fuqarolik jamiyati davlatdan ustuvor degan tushunchani beradi. Rostdan ham insonlarning mavjud huquqlarini davlat Konstitutsiya orqali mustahkamlaydi.

XULOSA

Konstitutsiya huquqiy demokratik davlatni barpo etish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonining tayanch huquqiy asosi hisoblanadi. U davlat hokimiyati bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy me'yorlar orqali muvozanatlashtirib, shaxs huquqlari va erkinliklarini oliy ijtimoiy qadriyat sifatida e'tirof etadi. Konstitutsiya orqali davlat hokimiyatining chegaralari aniqlanadi, qonun ustuvorligi va huquqiy tenglik tamoyillari mustahkamlanadi hamda davlat organlari faoliyatining ochiqligi va javobgarligi ta'minlanadi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining erkin va barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan huquqiy shart-sharoitlarni yaratadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
2. The history of the Origins of Representative Government in Europe
3. Introduction to the Study of the Law of the Constitution (1885).

² The history of the Origins of Representative Government in Europe

³ Introduction to the Study of the Law of the Constitution (1885).